XALQ DEPUTATLARI BULOQBOSHI TUMAN KENGASHI QARORI

170500, Buloqboshi t., M.Ismoiliy ko'chasi 6-uy, Telefon: (74) 7732560 e-mail: buloqboshi@exat.uz

2023 - yil 28 - avgust VI-73-66-1-20-K/23 Buloqboshi tumani hokimligi

Buloqboshi tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buloqboshi tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo'shimcha mablag'lar 147 110,0 ming so'mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining "2023 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo'shimcha mablag'larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo'yicha" taklifi maqullansin.

2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag'lar ajratilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Bo'taxonov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Rasuljonov) va g'aznachilik xizmati bo'limi (D.To'rayev) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda yo'naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot hizmati (I.Yuldashev) mazkur qarorni matbuotda e'lon qilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi N.Sotvoldiev hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari F.Bo'taxonov zimmalariga yuklatilsin.

Туман ҳокими **O'.Mamurov**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman
Kengashining
2023-yil 28-avgustdagi
VI-73-66-1-20-K/23-son qaroriga
1-ilova

№	**Chora-tadbirlar nomi**	**Ajratilishi lozim bo‘lgan mablag‘** (ming so‘m)	**Taklif** (ming so‘m)
Buloqboshi tumani jami		**147 110**	**147 110**
1	"Yoshlar daftari" jamg‘armasiga (PQ-92 ga asosan 15 %)	22 067	22 067
2	"Ayollar daftari" jamg‘armasiga (PQ-5020 ga asosan 15%)	22 067	22 067
3	"Temir daftari" jamg‘armasiga	22 067	22 067
4	"Tashabbusli byudjet" jamg‘armasiga (PQ-5072 ga asosan 30 %)	44 133	44 133
5	Bolalalr sog‘lomlashtirish va axoli salomatligini tiklashga ko’maklashish jamg’armasi (PQ-427 ga asosan 10 %)	14 711	14 711
6	Tuman hokimligi "Matbuot xizmati" xodimlarining ish haqisiga	11 396	11 396
7	Jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha hokim maslahatchisi ish haqisi (saylov)	10 669	10 669